

VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI VA JINOYATCHILIKNING OLDIN OLISH CHORALARI

Azbergenova Munira Charjauvna

Qoraqalpoq Davlat Universiteti Yuridika fakulteti 2-kurs studenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar órtasida jinoyatchilikning yuz berishi,jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, jinoyatchilikning oldini olish choralar,voyaga yetmaganlarning ishlarini yuritish munosabatlarini huquqiy tartibga solinishi va bu borada olib borilayatgan islohatlar hamda qabul qilingan qonun hujjatlар tahlil qilgan.

Kalit sózlar: voyaga yetmaganlar, voyga yetmaganlar jinoyatchiligi ,jinoiy javobgarlik, huquqiy munosabatlar, konstitutsiya, huquq, qonun, kodeks .

Mustaqilligimizning dastlabki yillardan boshlab soğlom, barkamol va har tamonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash asosiy vaziyfalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning har tomonlama barkamol shaxs bólíb voyaga etishlari uchun shart-sharayotlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor ýónalishlaridan biriga aylangan. Chuningdek, Ózbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida “Voyaga yetmaganlar huquqlari davlat himoyasidadir”, deb belgilanishi bu sohadagi davlat siyosatining huquqiy poydevorini yaratishga va jamiyatimizdagи siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy ózgarishlarni voyaga yetmagan shaxslarga oid ijtimoiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishga doir sa'y-harakatlarni kuchaytirishga olib keldi .

Xususan mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab ya'ni 1991 yili 20 noyabrda “ Ózbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari tógrisida ” gi qonun qabul qilindi hamda bu qonun 2016 yil 14 sentabrda yangi tahrirda qabul qilindi . ” Bola huquqlarining kafolatlari tógrisida ” gi , “ Voyaga yetmaganlar órtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi tógrisida ” gi, “ Bolalarni ularning soğligiga zarar yetkazuvchi axboratdan himoya qilish tógrisida ” gi qonunlar ham qabul qilindi . Qabul qilingan qonun va normativ-huquqiy hujjatlар yoshlarga o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirish uchun ko'plab imkoniyatlar yaratdi . Chunga qaramay hozirgi kunda yoshlar órtasida jinoyatga qol urish kuzatilmoqda va jinoyatlarning salmoğı oshib bormoqda. Voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olish muammosi mavjud, shuning uchun ham bu muammo davlat siyosati darajasida kótarilgan, shuningdek davlat siyosati darajasida voyaga yetmaganlarning jinoyat ishlariga oid holatlarning ilimi-nazariy asoslarini yaratish, amaliy jihatdan zarur chora-tadbirlarni qóllash, tegishli davlat organlari va

boshqa jamoatchilik tashkilotlari, shet el davlatlari va tashkilotlarini amalyotini órganishga e'tibor qaratilmoqda .

Voyaga yetmaganlar órtasida huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish bu salbiy holatlarni bartaraf etish, uni zararsizlantirish bilan birga bor bo'lgan ijobiy jarayonlardan foydalana olishdir. Jinoyatchilikka qarshi kurashning tarkibiy qismi bólgan hamda umumiy jinoyatchilikka qarshi kurashishning ajralmas qismi hisoblangan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar hamda jinoyatlarning oldini olish va unga yól qoymaslik davlatning jinoyiy-huquqiy yónalishidagi siyosatida muhim órin tutmoqda. Voyaga yetmaganlar deb, Konstitutsiya va boshqa qonun va normativ-hujjatlarda kórsatilgan fuqarolarning huquq va majburiyatlarini bajarish uchun belgilangan 18 yoshga tólmagan shaxslar nazarda tutiladi .

Voyaga yetmaganlar javobgarligi deganimiz bu 18 yoshga tólmadan turib jinoyat sodir qilgan shaxslarning javobgarligi, jinoyat qonuniga binoan tayinlanadigan, qa'tiy cheklangan jazo turlari. Voyaga yetmagan shaxslar uchun javobgarlikni belgilovchi normalar ikkiga bólindi. Birinchisi, jinoyat sodir etgunga qadar voyaga yetmaganlarga nisbatan qollanadigan normalar; ikkinchisi, norma qóllangunga qadar voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan qollanadigan majburlov choralari.[1]

Skryabin M.A ning fikricha voyaga yetmaganlarning jinoyiy javobgarligi quydagi hususiyatlarga ega boladi: voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat qoununida nazarda tutilgan barcha jazo choralari qollanilmaydi; voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun jazo tayinlashda sud ularning voyaga yetmaganligin engillashtiruvchi holat deb hisoblaydi; voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan ozodlikdan mahrum qilish jazosi eng ógir jazo sifatida óziga hos hususiyatlarga ega boladi.[2]

M.X.Rustamboev fikricha, sobiq ittifoq davrida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va unga qarshi kurashishga etarli darajada e'tibor berilgan bo'lsa ham, ammo jinoyat qonunidagi bunday jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan normalar shu vaqtgacha biror marta ham tizimlashtirilgan holda alohida bir bo'limga berilmagan edi .Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir qilganida , davlat tomonidan ularning bu qilmishiga beriladigan jazoning kattalarga beriladigan jazoga nisbatan ancha yumshoqligi qadimgi quzdorlik davlatlariga ham hos bolganligini Rim davlatining “ XII jadval qonunlari” da ham uchratamiz.[3]

Voyaga yetmaganlar jinoyatchilagini keltirib chiqarayotgan shart-sharoitlar hamda ularning asosiy sabablari o'rganliganda avvalom bor yoshlarning bo'sh vaqtarin tashkil etishda yo'l qoyilayotgan kamchiliklar ko'zga tashlandi. Yoshlarni darsdan bosh vaqtlarida turli tógaraklarga jalb etish ishlarida yuzaga kelyotgan kamchiliklar, mehnatga loyaqatli yoshlarni ish bilan ta'minlanmasligi ularga mehnat qonunida belgilangan rag'batlarni yetarli darajada berilmaganligi, o'z vaqtida

profilaktika ishlari yetarli darajada olib borilmasligi, voyaga yetmaganlarda ma’naviy ongning salbiy ózgarishi natijasida huquqiy ongda mavjud bo’lgan kamchiliklar natijasida turli hil jinoyatlar sodir etishiga sabab bólmoqda.

Mening fikrimcha voyaga yetmaganlar o’rtasida jinoyatchilik yuz berishining asosiy sabablaridan biri bu oilaviy muhit, oilada yuz beryotgan muammolar sabab bo’lishi mumkin. Ota-onaning bolaga bo’lgan mehrining etishmasligi , ota-onalarning farzandlari taqdiriga befarq munosabatta bólishi, ota-onsa o’rtasidagi ajrimlar, nizolar, janjallar, ota-onsa o’rtasidagi munosabatlarning keskinligi, ota-onalarning farzandlari tarbiyasi ustidan nazoratning susaytirib yuborganligi, normal sharoitning yo’qligi tasirida yuzaga kelishi mumkin. Buning tastig’i sifatida Yu.M.Antoyanning fikrini keltirishimiz mumkin ya’ni nasog’lom oilada jinoyatchilar har tamonlama sog’lom oilalarga nisbatan 9-10 marta ko’p etishib chiqadi. [4]

V.A.Ribalskayaning fikricha voyaga yetmaganlar jinoyatchiligidagi davlatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, o’zgarishlar ham ta’sir etadi.Bu holat boshqacha yashash sharayotining vujudga kelishi, mehnat qilishdagi, ta’lim olishdagi o’zgarishlar bilan bog’liq bo’ladi. [5]

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda eng avvalo davlatning roli eng ustuvor poydevor sifatida e`tirof etilib, bu boradagi ógamxórlilik davlat siyosati bilan uzviy boǵliq holda amalga oshiriladi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda davlat siyosati deganda, davlatning siyosiy qaror qabul qilish ýoli bilan bu toifadagi jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek aniq maqsadlar hamda vazifalarni hayotga tatbiq etish, ushbu ýonalishda tashkiliy ishlarni kompleks ravishda amalga oshirishni ta`minlashdagi maxsus faoliyati tushuniladi .

Ózbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish bu eng avvalo ijtimoiy faoliyat bólíb, jamiyat rivojlanishi va boshqa ijtimoiy holatlar bilan ózaro aloqadarlikda bólíb, óz órniga ega. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish ishlarida davlat siyosatining ahamiyati bu borada huquqiy bazani mustahkamlash va shu ýól bilan turli amaliy tadbirlarni olib borishga, voyaga yetmaganlarda qonunga itoatkorlik xulq-atvorini shakllantirishga, voyaga yetmaganlar nazoratsizligini, qarovsizligini, ular tomonidan huquqbazarliklar yoki boshqa g’ayri ijtimoiy xattiharakatlar sodir etilishining oldini olishga,voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minalashga e`tibor qaratiladi hamda jinoyat sodir qilishga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashga, bartaraf etishga qaratiladi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olishda eng avvalo noqulay hayot va tarbiya sharoitida qolgan voyaga yetmaganlarga yordam berisa, ularning qiziqishlariga ta’sir kórsatish orqali ularni tartibga solish lozim. Chuningdek, voyaga yetmaganlarning qiziqishlariga mos keluvchi musiqa, klip, kino va filmlar ishlab chiqish, ularda vatanga muhabbat, mardlik, halollik, ezgulik kabi g’oyalarni singdirish, shuningdek voyaga yetmaganlar órtasida huquqbazarlik va

jinoyatchiligning oldin olishga qaratilgan hujjatli filmlarni yaratish, voyaga yetmaganlar jinoyatchiliqi bilan kurashishda jinoiy huquqiy normalarni takomillashtirish, qonunchilikni rivojlantirish hamda uni yanada samarali ishlashini ta'minlash ularni molyalashtirish masalalariga e'tibor qaratish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiliqi davlat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillardan biridir. Uning ta'sir doirasini bolsa shaxs va jamiyat xavfsizligiga taxdidi orqali yuzaga keladi. Fikrimcha yoshlar asosan bekorchilik, e'tiborning kamligi, e'tiborga muhtojligi huquqiy savodxonlikning pastligi tufayli turli jinoyatlar sodir etmoqda. Chuning uchun ham voyaga etmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarlikning oldini olish va nazorat qilish uchun eng muqobil, samarali chorasi sifatida sog'lom oilaviy muhitni yaratish, ota-onalar bilan ishslashni kuchaytirish, oila institutini mustahkamlash bo'yicha choralar ko'rishi kerak, yoshlarning bandligini ta'minlash, yoshlarning ma'naviy saviyasini yuksaltirish, qonunlarni hurmat qilish, ularga boysinish ruhini shakllantirish kerak. Ma'lum bo'lganidek, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligning oldini olish mamlakatimizning kelgusida rivojlanishiga, siyosiy barqarorligi va xalqimizning farovon turmush tarzini yaratish uchun zamin yaratadi.

1. Voyaga yetmaganlarning huquqlari, majburiyatları va javobgarligi óquv qóllanma

M.H.Rustamboyev,I.B.Zokirov 76b,Tashkent 2010

2. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi óquv qóllanma

S.Niyozova,A.Allanova,K.Xakimova 17b,Tashkent 2021

3. Voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi óquv qóllanma

S.Niyozova,A.Allanova,K.Xakimova 9b,Tashkent 2021

4.Oilada sodir etilayotgan jinoyatlar va ularni oldini olish muammolari.

Bazarova. D. B 2012,58b

5. В.Я. Рыбальская « Проблемы борьбы с преступностью несовершеннолетних»

1994.c.26

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ózbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-soni
2. Ózbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati tógrisidagi qonun 2016y 14.09
3. Bola huquqlarining kafolatlari tógrisida qonun 2008y
4. Voyaga yetmaganlar órtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi tógrisida qonun 2010y 29/09
5. Ózbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2022y 20/04